

**MAXSULOT VA XIZMATLARDA XALQARO TALABLAR ASOSIDA
STANDARTLARNI ISHLAB CHIQUISH VA EKSPERTIZA QILISH****Axmedov Mashxurbek Dilmurodjon o'g'li****Rahbar: Mamasharipov A.****Andijon mashinasozlik intituti,****MSMSM yo'nalishi K-04-20 guruh 4-bosqich talabasi****Tel: +998 90-143-58-09. E-mail: mashxurboyya@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.11221395>**

Mamlakatimizning me'yoriy hujjatlarini xalqaro, hududiy, boshqa davlatlarning milliy me'yoriy hujjalari (keyinchalik – XS) bilan uyg'unlashtirishning eng samarali usuli ularni milliy standartlar sifatida qo'llanishdan iborat. XS ni qo'llanish – jahon bozoriga chiqishning, har bir tadbirkor sub'ektning, binobirin, butun mamlakatning eksport salohiyatini oshirishning eng muhim yo'llaridan biri bo'ladi.

Ammo, XS ni olib, uni milliy me'yoriy hujjat sifatida qo'llana boshlash mumkin emas. Buning uchun qator shartlar va o'ziga xos protseduralar bor.

XS ni qo'llanish va qabul qilishning umuiy qoidalariga quyidagilar kiradi.

XS mamlakatning standartlashtirish bo'yicha xalqaro va hududiy tashkilotlarida a'zo bo'lishi, shuningdek mahsulotni ishlab chiqarish va eksportga etkazib berish bo'yicha hamkorlik va shartnomalar to'g'risida xalqaro kelishuvlar (shartnomalar) asosida qo'llaniladi;

XS, agar uning talablari iqtisodiyot ehtiyojlarini qondira olsa va qonunlarga zid kelmasa, O'zbekistonda qabul qilinadi (amalga kiritiladi) XS dan ilmiy-tadqiqot va eksperimental ishlarda foydalanish ruxsat etiladi.

Xalqaro (hududiy) standartlar xalqaro standartlashtirish amaliyotida keng qo'llaniladi. Bunday standartlarda ko'pchilik mamlakatlar uchun xos umumiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan dunyo ilmiy-texnikaviy yutuqlari va ilg'or ishlab chiqarish tajribasi umumlashtiriladi. Bunga ko'ra xalqaro standartlar savdodagi texnik to'siqlarni muvaffaqiyatli bartaraf etishni ta'minlaydi, bu Jahon savdo tashkilotining savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha Bitim tomonidan tan olingan.

Xalqaro standartlarning milliy standartlar sifatida keng ko'lamda qo'llanish standartlashtirishning afzalliklarini to'liq amalga oshirishga imkon beradi, bu esa O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda muhim shart hisoblanadi.

Bu bilan birga, xalqaro standartlarni keng miqyosda qo'llanish qator sabablarga ko'ra juda qiyin masala bo'ladi. Bunday sabablar milliy xavfsizlik talablari, aholining hayoti, sog'ligi va mulki, atrof muhit xavfsizligidan iborat, iqlim, jo'g'rofiy yoki texnologik muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Hatto, bunday sabablarga ko'ra ham, standart talablarining xalqaro standart talablaridan farqini qisqartirishga doim intilish zarur.

Davlatlararo standartlar (ΓOCT) O'zbekistonning milliy boyligi hisoblanadi va O'zstandart Agentligi, Davarxitekturaqurilishning (buyrug'i) bilan, hech qanday qayta rasmiylashtirilmasdan, amalga kiritiladi.

Xorijiy firmalar (korxonalar) ning me'yoriy hujjalari bo'yicha va mustaqil ravishda etkazib berish (xaridga chiqarish) uchun mo'ljallangan mahsulot chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) ni mo'ljallagan tadbirkorlik sub'ektlari standartlashtirish ob'ektiga qarab milliy me'yoriy hujjat (davlat standarti, tarmoq standarti, texnik shartlar, ma'muriy-hududiy standart, korxonalar

standarti) ni ishlab chiqadi. Bu standartlar O'zstandart Agentligi idoralarida tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Xorijiy firmaning me'yoriy. hujjatlari asosida mahsulot chiqarish uchun korxonada foydalaniladigan detallar, yig'ma birliklar, texnologik moslama va asbob, texnologik me'yorlar va talablar, texnologik jarayonlarga korxonalar standartlari ishlab chiqiladi.

Faqat eksportga chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotni, agar mahsulotni etkazib berishga tuzilgan shartnoma (kontrakt) da eslatib o'tilgan bo'lsa, boshqa davlatlarning me'yoriy hujjatlariga muvofiq tayyorlash ruxsat etiladi. Bunday holda xorijiy firmalarning me'yoriy hujjatlarini qayta rasmiylashtirmaslik (bevosita qo'llanish) ruxsat etiladi. Bunda mahsulotni tayyorlash jarayonida, saqlashda, respublika hududida tashishda O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlarining majburiy talablari bajarilishi lozim. Xorijiy me'yoriy hujjatlar bo'yicha mahsulot tayyorlaydigan korxonalar bu hujjatlarni O'zstandartda yoki uning hududiy idoralarida, davlat va zarur bo'lganda, rus tillariga tarjima qilinganidan keyin ro'yxatdan o'tkazishi lozim.

1998-yilda O'z DSt 1.7:1998 "O'z SDT. Xalqaro, hududiy, davlatlararo, boshqa davlatlarning milliy standartlari va me'yoriy hujjatlarini qo'llanish tartibi" O'zbekiston davlat standarti qabul qilingan. Standart ISOG'IEC 21:1981 "Xalqaro standartlarni milliy standartlar sifatida qabul qilish" xalqaro qo'llanma asosida ishlab chiqilgan.

1999-yilda ISOG'IEC 21:1999 (ISOG'IEC GUIDE 21:1999) qo'llanma qabul qilingan. Bu qo'llanma uchta: ISOG'IEC 3:1981 "Xalqaro standartlarga ekvivalent milliy standartlarni identifikatsiya qilish", ISOG'IEC 21:1981 "Xalqaro standartlarni milliy standartlarda qabul qilish" va ISOG'IEC 21:1981G' Qo'shimcha 1:1983 "Milliy va xalqaro standartlar o'rtasida ekvivalentlik darajasi ko'rsatkichi" qo'llanmalarining o'rniga chiqarilgan.

ISOG'IEC 21:1999 1 sentyabr 2001 yildan boshlab, O'zbekiston davlat standarti sifatida, O'z DSt ISOG'IEC 21:2001 belgi bilan va nomini joiz o'zgartirgan holda "O'z. SDT, Xalqaro va hududiy standartlar (ISOG'IEC 21:1999, IDT) ni O'zbekiston davlat standartlari sifatida qabul qilish" amalga kiritildi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2019 yildagi PQ-4397-son "O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 yildagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.11.1992 yildagi 509-son "O'zbekiston davlat qishloq xo'jaligi va avtomobil mashinasozligi konserni va "deu korporeyshn" korporatsiyasi tomonidan avtomobillar ishlab chiqaruvchi "O'zdeuavto" qo'shma korxonasi tashkil etilishi to'g'risida" gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 01.06.2017 yildagi PQ-3028-son "2017 — 2021-yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 18.07.2019 yildagi PQ-4397-son

“O‘zbekiston respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-
tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori

